

O'ZBEK TILIDA NISBAT SHAKLLARI

A'zamjonova Farangiz Akmaljon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14787295>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi fe'l nisbatlarini o'rganish maqsad qilib qo'yilgan. Nisbat shakllari qo'shimchalari, ulardagi jihatlar va til vositalarining ahamiyati haqida so'z boradi. Fe'l nisbatlarining qoidasi va ularga istisno bo'ladigan holatlar ham tushuntiriladi. Nisbat qo'shimchalari qoidasi tushuntirib o'tiladi.

Tayanch so'zlar: nisbat, qo'shimcha, so'z, surishtir, shakl, ma'no, orttirma nisbat, majhul, o'zlik, harakat, holat.

PROPORTIONAL FORMS IN UZBEK

Abstract. The purpose of this article is to study verb ratios in the uzbek language. It talks about the aspects and the importance of language tools. The rule of verb tenses and exceptions to them are also explained. The rule of relative additions will be explained.

Keywords: ratio, adverb, word, query, form, meaning, accretive ratio, passive, identity, action, case.

ПРОПОРЦИОНАЛЬНЫЕ ФОРМЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. Целью данной статьи является изучение соотношений глаголов в узбекском языке. В ней говорится о дополнениях относительных форм, их аспектах и важности языковых средств. Также объясняются правила времен глаголов и исключения из них. Будет объяснено правило относительных сложений.

Ключевые слова: лингвист, соотношение, наречие, слово, запрос, форма, значение, аккретивный коэффициент, страдательный залог, тождество, действие, надеж.

O'zbek tilida til hodisalari bir-biriga uzviy bog'liq. Fonetika, leksikologiya va morfologiya bo'limlari tilshunoslikning alohida bo'limlari hisoblangani bilan ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Fe'l so'z turkumidagi nisbat shakllari faqatgina morfologiya bo'limidagina o'rganilib qolmay, balki sintaksiz va morfemalarda ham o'rganiladi. Nisbat shakllarini ko'pincha nisbat qo'shimchalari orqali aniqlaymiz. Lekin bu holatga zid holatlar ham kuzatilib turadi. Masalan: Sarvinoz buyumlarini olib borib, o'z xonasiga joylashdi. Bu yerda fe'l o'zlik nisbatda, lekin "-sh" qo'shimchasi birgalik nisbat qo'shimchasi hisoblanadi.

Morfologiya bo‘limida so‘z turkumlari o‘rganiladi. Shundan fe‘l so‘z turkumi shaxs va narsalarning harakat va holatini ko‘rsatib beradi. Fe‘ldan anglashilgan harakat-holat ma‘lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi sanaladi.

Masalan: mashina yurdi (harakat bajaruvchisi – mashina).

Mavjud qoidalarga ko‘ra bajaruvchining harakat va holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe‘l shakllari nisbat shakllari sanaladi. Masalan: supurdi fe‘lida supurish harakatini bajaruvchi shaxs aniq, supurildi fe‘lida noaniq, supurishdi fe‘lida birdan ortiq, supurtirdi fe‘lida esa harakat boshqa shaxs vositasida bajarilgani ifodalangan.

Nisbat shakllari asosdan keyin qo‘shiladi. Fe‘lda 5 ta nisbat shakli mavjud. Bular:

1. Aniq nisbat
2. O‘zlik nisbat
3. Ortirma nisbat
4. Majhul nisbat
5. Birgalik nisbat

Nisbat shakllari

T/R	Nisbat shakllari	Qo‘shimchalari	Misollar
1	Aniq nisbat	maxsus qo‘shimchasi yo‘q	Ziyoda keldi
2	O‘zlik nisbati	-n, -in, -l, -il	U ko‘rpachaga cho‘zildi
3	Orttirma nisbat	-t, -dir, -tir, -giz, -kiz, -ir, -ar, -iz	Sarvinoz ukasiga yozdirdi
4	Majhul nisbat	-n, -in, -l, -il	Belbog‘imga kulcha tugilgan
5	Birgalik nisbati	-sh, -ish	Ular maktabga borishdi

Aniq nisbat. Bajaruvchisi aniq bolgan harakat va holatni bildirgan fe‘l shakli aniq nisbat deyiladi. Aniq nisbatning maxsus qo‘shimchasi mavjud emas. Masalan: keldi, ovqatlandi, bajardi, surildi, tiklandi, qaytdi. “Ovqatlandi” so‘zini ko‘pchilik o‘zlik nisbat deb o‘ylaydi, lekin bu “-lan” qo‘shimchasi ma’noli qismlarga bo‘linmagan. “Surildi” so‘zi ham shunday. “suril” o‘zi asos bo‘lib kelgan.

O‘zlik nisbat. Bajaruvchining o‘zi ustida amalga oshadigan harakat va holatni ifodalaydigan fe‘l shakli o‘zlik nisbati deyiladi. O‘zlik nisbatining qo‘shimchalari -n, -in, -l, -il tarzida keltirilgan. Masalan: taradi-tarandi, maqtadi-maqtandi.

O‘zlik nisbati qo‘shimchalari o‘timli fe‘llarga qo‘shiladi. Kiyindi (kiy – otimli fel).

O'zlik nisbati qo'shimchasi ayrim hollarda o'timsiz fe'llarga ham qo'shiladi. O'timli fe'l o'zlik nisbat shakliga o'tgach o'timsizlashadi.

Uxla, bor, ek kabi fe'llardan o'zlik nisbati yasalmaydi.

Ammo kampirning dodiga odam tez to'pla(n)di. (Abdulla Qahhor).

Nurga toldi dara, to'ldi soy, Nur yog(il)di qorong'i jarga. (Hamid Olimjon).

Orttirma nisbat. Bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat va holatni bildiruvchi fe'l shakllari orttirma nisbat shakli deyiladi. Orttirma nisbat shakllari –t, -dir, -tir, -giz, -kiz, -qiz, -ga, -kza, -qaz, -ir, -ar, -iz kabi qo'shimchalar orqali yasaladi. Orttirma nisbatdagi fe'llarda buyruqona da'vat boladi. Masalan: keltir, oldir, qaytar, chaqir, ko'rsat.

Orttirma nisbatning -t qo'shimchasi unli tovush bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi.

Masalan: to'qit, ishlat.

Jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga –dir, jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga esa –tir qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: to'ydir, bildir, tushintir, kuttir. Birgina kelmoq fe'li bundan mustasno: keltir holatida bo'ladi.

Majhul nisbat. Bajaruvchisi noma'lum bo'lgan harakat yoki holatni ifodalovchi fe'l shakli majhul nisbat deyiladi. Majhul nisbat shakli unli bilan tugagan fe'l asoslariga -n, -l; undosh bilan tugagan fe'l asoslariga esa -in, -il qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil boladi. Masalan: sanalmoq, qilinmoq.

O'zlik va majhul nisbat shakllari aynan bir xil, lekin ular harakat va holatning bajaruvchisi nuqtayi nazaridan farq qiladi. O'zlik nisbatida harakat-holat bajaruvchining o'zi ustida amalga oshadi, majhul nisbatda esa bajaruvchi noma'lum bo'ladi. Masalan: tarandi- taraldi, kiyindi - kiyildi.

Egilgan boshni qilich kesmas – majhul nisbatda

Polvon sal oldinga egildi – o'zlik nisbatda.

Birgalik nisbat. Birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe'l shakli birgalik nisbati deyiladi. Birgalik nisbat shakli unli bilan tugagan fe'l asosiga -sh, undosh bilan tugagan fe'l asosiga esa -ish qo'shimchasini qo'shish orqali hosil boladi. Masalan: borishdi, ovqatlanishdi.

Birgalik nisbat qo'shimchasini harakat nomi qo'shimchasi bilan chalkashtirmaslik kerak.

Fe'l birgalik nisbatda bo'ladigan bo'lsa, -sh, -ish qo'shimchalaridan keyin zamon va shaxs-son qo'shimchalari keladi, harakat nomida esa -sh, -ish qo'shimchalaridan keyin egalik, kelishik qo'shimchalari keladi. Masalan: o'qishi – o'qishdi.

Zeboning o'qishi yaxshi – harakat nomi.

Zebo kitobni o'qidi – birgalik nisbat

Xulosa shuki, fe'lning qaysi nisbatda turganligi eng oxirgi nisbat shakliga qarab aniqlanadi: gilamlar to'shattirildi – majhul nisbatda.

Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasining yetakchi qismida ham, ko'makchi qismida ham nisbat shakli bolsa, ko'makchi qismiga qarab fe'l qaysi nisbatdaligi aniqlanadi. Masalan: kuldirtirib turildi – kuldirildi: majhul nisbat.

Nisbat shaklini aniqlash uchun, avvalo, uning shakliga ya'ni nisbat qo'shimchalariga e'tibor berish kerak.

REFERENCES

1. A. Hojiyev. Fe'l. "Hozirgi o'zbek adabiy tili".1980
2. M.Hamroyev, D. Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva "Ona tili" Toshkent "Iqtisod-moliya" 2007
3. Nargiza Erkaboyeva "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" 2012
4. A.F.G'ulomov "Fe'l" 1954
5. Y. Tojiyev "Fe'llarda o'timli-o'timsizlik haqida" 1957